

BUGUNGI KUN O'QITUVCHISIGA QO'YILAYOTGAN ZAMONAVIY TALABLAR

*Sangirova Mahfuza Hasanovna. - Jizzax Davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Zamonaviy mutaxassis kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yo'llarini ko'ra bilishi lozim. Bunday talablar darajasidagi mutaxassisni tarbiyalash uchun o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va boshqarish, kasb-hunar kollejlarda ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirishning samarali shakllari, faol usullari hamda zamonaviy vositalari majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy-usuliy jihatdan asoslash lozimdir.

Kalit so'zlar: Ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasbiy ta'lim, kasbiy pedagogika, kasbiy mahorat, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, pedagogik prinsip, pedagogik muloqot, didaktik prinsiplar (tamoyillar), ta'lim usullari, ta'lim vositalari, ta'lim texnologiyalari.

Аннотация: Современный специалист должен уметь быть в курсе последних событий в сфере профессиональной деятельности, уметь видеть будущие направления развития и пути решения возникающих проблем. Необходима организация и управление средним специальным, профессиональным образованием, разработка комплекса эффективных форм, активных методов и современных инструментов реализации производственного образования в профессиональных колледжах и научно-методическое обоснование подготовки специалиста на уровне таких требований.

Ключевые слова: Образование, общее среднее образование, профессиональное образование, профессиональная педагогика, профессиональное мастерство, педагогическая деятельность, педагогический процесс, педагогический принцип, педагогическое общение, дидактические принципы (принципы), методы обучения, средства обучения, образовательная технология.

Kirish. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy jihati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda, mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. «Talim tog'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dastur»ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Ma'lumki, uzluksizlik va uzviylik ta'lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek

qo'yib, avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi. qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili

sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Pedagogik tadqiqotlarning rivojlanishi va natijalarining o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, tadqiqot natijalarini jadallik bilan tarqalishini ta'minlovchi axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratilmoqda.

Jahonda bo'lajak o'qituvchilarining innovatsion faoliyati kasbiy kompetentligi va metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini yanada kuchaytiradi. Bu borada o'qituvchilarining nazariy tayyorgarligi, amaliy tayyorgarligi, kompleks tayyorlash, ta'lim amaliyoti variativligi, innovatsion muhitda texnika vositalaridan foydalanish, kompleks rivojlanish, multimedia tasvirli ma'lumotlarni qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda o'qituvchilarining pedagogik mahorati, pedagogik faoliyati, o'qitish texnologiyasi va metodikasi, hamkorlikda o'qitish, geografiya ta'limining taraqqiy etish bosqichlari, kasbiy metodik tayyorgarlikni shakllantirish tamoyillari, geografiyaiy adabiyotlar, uslubiy adabiyotlar tahlili bo'yicha tadqiqotlar alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan geografiya o'qitish nazariyasi, bo'lajak geografiya o'qituvchisining faoliyat tuzilmasi, kasbiy sifatleri, kasbiy tayyorgarligi, pedagogik qobiliyati, kasbiy kompetentligi, kasbiy faoliyatini rivojlantirish hamda rivojlantiruvchi ta'lim metodikalari asosida dasturli ta'lim, metodik tizim, kasbiy metodik yo'naltirilganlik, o'qitish vositalari, ilmiy asosli adabiyotlarni takomillashtirish zaruriyatini izohlaydi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi hozirgi kunda o'qituvchiga qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan ko'plab tadqiqotlar mavzusi jamiyatdagi tub o'zgarishlar sharoitida mutaxassis sifatida va shunga mos ravishda mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorligining sifati bo'yicha aniqlanadi. Zamonaviy fanda "kasbiy tayyorgarlik" tushunchasi bilan bog'liq kasbiy tayyorgarlik va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini aks ettiradi, ko'nikma va mustaqil kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar:

Jadallashtirishga qaratilgan kasbiy tayyorgarlik tizimi ta'lim oluvchilar tomonidan muayyan bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallash ishlar guruhi;

Imkon beruvchi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoni muayyan faoliyat sohasidagi ishlarni bajarish. Bu tezlashtirish uchun mo'ljallangan ta'lim oluvchilar tomonidan muayyan bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallash ish yoki ishlar guruhi.

Murakkab pedagogik tizim sifatida bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi quyidagi xususiyatlarga ega: turli xil birlik va o'zaro bog'liqlik, umumiy maqsad va yagona faoliyat bilan birlashgan tarkibiy elementlar; o'rtasida ulanishlar va bog'liqliklar asosida yagona ichki tashkilot tizim komponentlari, atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri.

Pedagogik tizim strukturasi nisbatan barqaror deb aniqlash tartibini aks ettiruvchi murakkab butunlik elementlarini bog'lanish usuli ob'ekt uning barqarorligini ta'minlovchi ichki va tashqi bog'lanishlari, barqarorlik, sifatli ishonch, zamonaviy turli yo'llar bilan taqdim etiladi

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarni o'rganishda bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi tarkibiga bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari kiritilgani aniqlandi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi tarkibida o'zaro bog'liq uch jihat: shaxsiy, kognitiv va aksiologik uchun ma'naviy-psixologik, nazariy va amaliy tayyorlik talab etiladi. Birinchi jihatda bo'lajak o'qituvchining ichki tayyorgarligi, ikkinchi va uchinchi jihatda tashqi protsessual va faoliyat shaklining namoyon bo'lishi murakkab va alohida-alohida tegishli xususiyatlarini aks ettiradi

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavr-talabalar kasbiy faoliyati turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan oliy ta'lim muassasasi hamkorligi asosida aniqlanadi. Bitiruvchilar kasbiy qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin oliy, umumiy o'rta ta'lim tashkiloti, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan turdosh (sohaga mos) fanlarni o'qitish imkoniyatiga ega bo'ladilar

Zamonaviy o'qituvchi – bu yangi o'qitish texnologiyalarini egallagan, o'quv jarayonining ijodiy fikrlovchi yaratuvchisi, o'quvchilarning ta'limi va tarbiyasi bilan bog'liq ko'p qirrali vazifalarni yechishga qodir o'qituvchi, o'z kasbiy mahoratini doimiy takomillashtiruvchi mutaxassis hisoblanadi.

Zamonaviy taraqqiyot bosqichida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy metodik tayyorlashga qo'yiladigan yuqori talablar o'tilayotgan fanning mazmunining o'ziga sezilarli o'zgarishlar kiritilishi bilan o'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli va vazifalarini o'zgarishi, o'tmishni o'rganishda nazariy, metodologik yondashuvlarning kengayishi va boyishi, avval sir saqlangan manbalar va mahalliy hamda xorijiy pedogoglarning ishlari katta hajmining paydo bo'lishi, pedogogik tadqiqotning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarining ishlab chiqilishi bilan bog'liqdir.

Bo'lajak o'qituvchilarini pedogogik, kasbiy faoliyat talablaridan biri kuyidagi aytib o'tishimiz mumkin. Ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o'quv materiallarini modellashtirish; yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarning uyg'unligiga erishish; ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish; ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish; o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish; ta'lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta'minlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Shu bilan birgalikda, "fan va texnika tezlik bilan rivojlanayotgan vaqtda ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi ortib boradi. Bir tomondan, fan va texnikaning yangi soha hamda bo'limlarining differensiallashuvi ta'minlansa, ikkinchi tomondan esa, fanlar integratsiyasi vujudga keladi" shunday ekan har bir

bo'lajak zamonaviy mutaxassis mustaqil ravishda ta'lim olishga va o'rganishga shunday tayyorlanishlari kerakki, ular nafaqat hozirgi mavjud texnika va texnologiyani bilishi, balki yangi texnika va texnologiyani ancha qisqa muddatda hamda samarali o'zlashtira olishlari lozim. Shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak kichik mutaxassisda ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirib borish alohida pedagogik vazifa ham hisoblanadi hamda bu vazifani amalga oshirish uchun maxsus metodikalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ta'lim oluvchilarning zamonaviy bilim olishi, mustaqil ishlashi va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishi, ularning ongli faolligi, mustaqilligi hamda ijodkorligi, o'quv bilish faoliyati natijasining sifatini xarakterlaydi.

Ta'limga ijodiy yondashuv - shaxsga yo'naltirilgan o'qitishni to'la amalga oshirishga imkoniyat yaratadi

Bo'lajak o'qituvchilarini ilmiy ijodga jalb etish orqali ularning pedagogik qobiliyatlarini shakllantirish muammosi oliy ta'limning dolzarb va muhim vazifasi hisoblanib, bu oliy ta'lim vazirligining me'yoriy hujjatlarida bir necha bor ta'kidlangan. Oliy ta'lim davlat standartining « o'qitish metodikasi» ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchini tayyorlash darajasiga qo'yiladigan malaka talablarida bo'lajak o'qituvchisi uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim muassasalarida ishlash uchun tayyorlangan bo'lishi ko'rsatilgan.

Pedagogik ijodni biz ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, o'qituvchi uchun sifatli yangi mahsulotlarni yaratishga qaratilgan, uning alohida faoliyat turi sifatida qaraymiz. Ijodiy faoliyat jarayonida o'qituvchida yangi nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalar shakllanadi. Pedagogik ijodning shaxsiy jihati o'z ichiga ijodiy shaxs uchun xos bo'lgan, barcha psixik sifatlarni – tasavvur, aqlning moslashuvchanligi, divergent tafakkur, ichki motivatsiya hamda boshqa psixik xususiyatlar birligini qamrab oladi.

Zamonaviy sharoitlarda ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va bajarish orqali ilmiy-texnik faoliyatlarining konseptual asoslari va bolalar, o'quvchi-yoshlar va bo'lajak o'qituvchilarining ijodiy iqtidorlari va qobiliyatlarini amalga oshirish, shuningdek, Dasturni amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar rejasi taklif

etilgan. Bolalar va yoshlar iqtidorlarini rivojlantirish tizimi ishtirokchilarini ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish shakllari va metodlarini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Ilmiy adabiyotlarda bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarlik ishlarining turli ta'riflari mavjud. Masalan, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini takomillashtirish jarayoni orasidagi mavjud nomuvofiqlik aniqlandi, uni bartaraf etishda zamonaviy axborot texnologiyalarining yetarli joriy etilmaganligi mavjud muammoning yanada yuqori dolzarflik kasb etayotganligini ko'rsatdi.

Yuqoridagi bayon etilganlarga asoslanib, biz bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarlik ishlari mavjud tizimini ko'rib chiqamiz, bo'lajak o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetentliklarini shakllantirish maqsadida uning tuzilishiga va mazmuniga o'zgartirishlar kiritamiz. Nazariya va amaliyot tahlili bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy metodik tayyorgarlik ishiga jalb etishning shakllari mavjudligini ko'rsatadi. Bular ilmiy to'garaklar, ilmiy seminarlar, talabalar konstruktorlik laboratoriyalari, shuningdek ma'lum bir aniq masalalar ustidagi individual ishlardir. O'qitishning bunday shakllari bo'lajak o'qituvchilariga kichik guruhlarning ijodiy ishlari orqali ilmiy fanlar bo'yicha fundamental bilimlarni, ilmiy ishlarni o'tkazish ko'nikmalarini va umuman intellektual ishga qiziqishni orttirishlariga imkon beradi. Oliy kasbiy ta'lim amaliyotida asosiy shakllar sifatida darsdan tashqari komponentlardan tashkil topgan bo'lajak o'qituvchilari ilmiy-tadqiqot ishlari, o'quv jarayoni doirasida amalga oshiriladigan o'quv-tadqiqot ishlari

Xulosa. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" g'oyalari amaliyotga tatbiq etish Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari kasbiy-metodik tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ilmiy ijodan foydalanish hamda bo'lajak o'qituvchi-tadqiqotchini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. Ta'lim to'g'risida Qonuni. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637 son Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.

2. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-406-son Qonuni. 2016 yil 14 sentabr.

3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral.

4. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 8 oktabr.

5. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son Qarori. 2017 yil 20 aprel.

6. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi geografiyai bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini

7. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son Qarori. 2018 yil 5 iyun.

8. O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi huzuridagi «Yoshlar - kelajagimiz» jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 669-son Qarori. 2018 yil 16 avgust.